

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA GRAMMATIK NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA TAFAKKUR VA NUTQIY MULOQTNI O'RNI**Maxmudova Durdona Mirkarimovna,***Toshkent Amaliy fanlar universiteti**Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedra dotsenti, (PhD)***DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18513845>**

Annotatsiya. Ushbu maqolada tafakkur, til va e'tiqod o'rtasidagi munosabat falsafiy muammo sifatida tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Antik davr faylasuflaridan tortib, o'rta asrlar diniy-falsafiy ta'limotlari, zamonaviy va hozirgi zamon falsafasidagi qarashlar qiyosiy yondashuvda ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda tafakkur inson ongining asosiy faoliyati, til esa ushbu tafakkurning ijtimoiy va madaniy ifodasi sifatida talqin etilgan. E'tiqod esa tafakkur va til o'rtasidagi munosabatni ma'naviy-axloqiy mezonlar orqali tartibga solishiga asoslanadi. Tarixiy manbalar tahlili orqali mazkur uchlikning jamiyat ma'naviy hayoti, dunyoqarash shakllanishi va ijtimoiy ong rivojidadagi o'rni yoritib berilgan. Maqola natijalari tafakkur-til-e'tiqod uchligini zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Tafakkur, til, e'tiqod, falsafa, tarixiy manbalar, ijtimoiy ong, dunyoqarash, madaniyat, ma'naviyat, gnoseologiya, ontologiya, diskurs, semantika, diniy tafakkur, falsafiy tahlil.

Аннотация. В данной статье взаимосвязь между мышлением, языком и верой анализируется на основе исторических источников как философская проблема. Сравнительным подходом рассматриваются взгляды философов античности, средневековых религиозно-философских учений, современной и современной философии. В исследовании мышление интерпретируется как основная деятельность человеческого сознания, а язык - как социальное и культурное выражение этого мышления. Вера основана на регулировании отношений между мышлением и языком посредством духовно-нравственных критериев. Посредством анализа исторических источников освещена роль этой триады в духовной жизни общества, формировании мировоззрения и развитии общественного сознания. Результаты статьи служат расширению возможностей применения триады мышление-язык-вера в современных социально-философских исследованиях.

Ключевые слова: Мышление, язык, вера, философия, исторические источники, общественное сознание, мировоззрение, культура, духовность, гносеология, онтология, дискурс, семантика, религиозное мышление, философский анализ.

Abstract. This article analyzes the relationship between thought, language, and faith as a philosophical problem based on historical sources. From ancient philosophers to medieval religious and philosophical teachings, as well as views in modern and contemporary philosophy, are considered in a comparative approach. In the study, thinking is interpreted as the main activity of human consciousness, and language as the social and cultural expression of this thinking. Faith, on the other hand, is based on the fact that it regulates the relationship between thinking and language through spiritual and moral criteria. Through the analysis of historical sources, the role of this triad in the spiritual life of society, the formation of worldview, and the development of social consciousness is highlighted. The results of the article serve to expand the possibilities of applying the trinity of thinking-language-belief in modern socio-philosophical research.

Keywords: Thought, language, belief, philosophy, historical sources, social consciousness, worldview, culture, spirituality, epistemology, ontology, discourse, semantics, religious thinking, philosophical analysis.

Kirish. Tafakkur, til va e'tiqodning ijtimoiy-falsafiy modeli insoniyat ma'naviy taraqqiyotining eng muhim tushuntiruvchi konstruksiyalaridan biri bo'lib, u tarixiy manbalardan tortib zamonaviy sivilizatsiyagacha bo'lgan jarayonni yaxlit holda talqin qilish imkonini beradi. Ushbu uchlik inson ongining shakllanishi, jamiyatning madaniy rivoji va ijtimoiy munosabatlarning barqarorlashuvida tayanch omil sifatida namoyon bo'ladi. Tafakkur, til va e'tiqod o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasi falsafa tarixida eng murakkab va dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu uchlik inson ongining shakllanishi, bilish jarayoni va jamiyat ma'naviy hayotining rivojlanishini belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. Tarixiy manbalarda tafakkur aql va mantiq orqali haqiqatni anglash vositasi sifatida, til esa mazkur jarayonning ijtimoiy ifodasi sifatida talqin qilingan. E'tiqod esa bilishning ma'naviy-ruhiy asosi bo'lib, tafakkur va tilga yo'nalish beruvchi kuch sifatida baholangan. Biroq turli davr va falsafiy maktablarda ushbu uchlikning o'zaro nisbati turlicha talqin etilib, ba'zan uyg'unlik, ba'zan esa keskin qarama-qarshiliklar yuzaga kelgan.

Adabiyotlar tahlili. Tafakkur, til va e'tiqod o'zaro aloqasi masalasi falsafa tarixida turli paradigmalar asosida talqin qilingan. Antik manbalarda (Platon, Aristotel) tafakkur va tilning mantiqiy birligi asosiy o'rinda bo'lsa, o'rta asr teologik manbalarida e'tiqod bilishning ustuvor asosi sifatida talqin etilgan. Islom falsafasida Forobiy va Ibn Sino tafakkur va e'tiqodni uyg'unlashtirishga intilgan. Yangi davr manbalarida ratsionalizm e'tiqoddan ustun qo'yilgan, XX asr tadqiqotlarida esa til va diskursning ijtimoiy ongdagi roli chuqur tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tafakkur, til va e'tiqod o'rtasidagi o'zaro aloqaning falsafiy muammolarini ochib berishda kompleks va integrativ metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy usuli sifatida tarixiy-falsafiy tahlil tanlanib, unda antik davrdan to zamonaviy falsafagacha bo'lgan manbalar ketma-ketlik va vorisiylik tamoyili asosida o'rganildi. Shuningdek, komparativ tahlil usuli orqali turli falsafiy maktablar va mutafakkirlarning qarashlari solishtirilib, ularning umumiy va ziddiyatli jihatlari aniqlandi. Germenevtik yondashuv muqaddas va falsafiy matnlarni mazmunan talqin qilish, til va e'tiqodning semantik qatlamlarini ochib berishda qo'llanildi. Bundan tashqari, tizimli va dialektik tahlil usullari orqali tafakkur, til va e'tiqodning o'zaro ta'siri yaxlit falsafiy model sifatida asoslandi hamda ularning tarixiy rivojida yuzaga kelgan muammolar nazariy jihatdan umumlashtirildi.

Natijalar va ularning tahlili. Tarixiy manbalarda tafakkur, til va e'tiqod dastlab ajralmas yaxlitlik sifatida shakllangan. "Qadimgi Sharq sivilizatsiyalarida Misr, Bobil, Hind va Xitoy tafakkurida borliqni anglash mifologik va diniy e'tiqodlar orqali amalga oshirilgan. Bu davrda tafakkur mantiqiy emas, balki obrazli-mifologik xarakterga ega bo'lib, til ramziy va marosim shaklda namoyon bo'lgan". E'tiqod esa kosmik tartib va ilohiy iroda bilan bog'langan holda ijtimoiy hayotni boshqaruvchi asosiy mexanizm

vazifasini bajargan. Demak, qadimgi davrda mazkur uchlik mif–ramz–e’tiqod modeli asosida ijtimoiy ongini shakllantirgan.

Antik falsafada ushbu model yangi bosqichga ko’tarildi. Yunon mutafakkirlari, xususan, “Platon va Aristotel tafakkurni mantiqiy-tizimli faoliyat sifatida talqin qila boshladilar. Til endilikda faqat ramziy vosita emas, balki mantiqiy fikrni ifodalovchi logos sifatida tushunildi. E’tiqod esa sof mifologik shakldan chiqib, falsafiy haqiqatga ishonch, kosmosdagi tartibga e’tiqod ko‘rinishida namoyon bo‘ldi”. Antik davrda tafakkur–til–e’tiqod modeli ratsional tafakkur + mantiqiy til + kosmik ishonch uyg‘unligida shakllandi.

O‘rta asrlarga kelib, ushbu uchlik teologik paradigmaning markaziga aylandi. Islom, xristian va yahudiy falsafasida e’tiqod yetakchi o‘ringa chiqdi. “Tafakkur ilohiy haqiqatni anglash vositasi sifatida talqin qilinib, vahiy va aqida doirasida cheklab qo‘yildi” [3. C. 40-61-142.]. Til esa muqaddas matnlar (Qur‘on, Injil, Tavrot) orqali e’tiqodning asosiy tashuvchisiga aylandi. Islom falsafasida Forobiy, Ibn Sino, G‘azzoliy singari mutafakkirlar tafakkur va e’tiqod o‘rtasida muvozanat o‘rnatishga harakat qildilar. Bu davr modeli e’tiqod markaziy, tafakkur sharhlovchi, til muqaddaslashtirilgan shaklda namoyon bo‘ldi. Diniy-falsafiy manbalarda e’tiqod bilishning asosiy tayanchi sifatida talqin qilinadi. Xususan, o‘rta asr teologiyasida “e’tiqod orqali bilish” (credo ut intelligam) tamoyili ustuvor bo‘lgan. Avreliy Avgustin va Anselm Kenterberiyning qarashlariga ko‘ra, e’tiqod inson ongini ilohiy haqiqatni anglashga tayyorlaydi va bilish jarayoniga ma’naviy yo‘nalish beradi. Islom falsafasida ham e’tiqod va bilish o‘zaro zid emas, balki uyg‘un jarayon sifatida ko‘riladi: vahiy orqali berilgan haqiqatlar aql bilan anglanadi. Bu yondashuvda e’tiqod bilishga boshlovchi va uni ma’naviy jihatdan legitimlashtiruvchi kuch sifatida baholanadi.

Yangi davr va Ma’rifatparvarlik bosqichida mazkur model tubdan o‘zgardi. Dekart, Spinoza, Kant singari faylasuflar tafakkurni mustaqil va avtonom bilish manbai sifatida ilgari surdilar. “Til ilmiy tushunchalar va kategoriyalarni aniq ifodalash vositasiga aylandi. E’tiqod esa asta-sekin shaxsiy vijdon va axloqiy ishonch doirasiga ko‘chirildi”. [4. C.213-215.] Natijada, tafakkur–til–e’tiqod modeli ratsional tafakkur ustuvorligi asosida qayta qurildi. Bu jarayon ilm-fan va sekulyar jamiyat shakllanishiga kuchli turtki berdi. Ayniqsa, Devid Yum e’tiqod va odatni bilishdagi subyektiv omil sifatida tanqid qilib, ilmiy bilishda faqat tajriba va sabab–oqibat munosabatlariga tayanish lozimligini ta’kidlaydi. Bu yondashuvda e’tiqod bilish uchun to‘sqinlik qiluvchi psixologik omil sifatida talqin qilinadi.

Pozitivizm va ilmiy naturalizm manbalarida esa e’tiqod yanada keskin rad etiladi. Ogyust Kont va uning izdoshlari ilmiy bilishni faqat empirik tekshiruv va faktlarga asoslashni talab qilib, metafizik va diniy e’tiqodlarni bilishdan tashqarida qoluvchi hodisalar deb baholaydilar. Bu nuqtai nazarga ko‘ra, e’tiqod subyektiv bo‘lib, obyektiv haqiqatni aniqlashda ishonchli mezon bo‘la olmaydi. Natijada, bilish jarayonida e’tiqod va ilm keskin ajratiladi.

Bu uchlikning dialektik birligi shundaki, til fikrni ifodalasa, fikr e'tiqodni shakllantiradi, e'tiqod esa til va tafakkur mazmunini boyitadi. Shaxsning dunyoqarashi aynan shu triada orqali mukammallashadi. Jamiyat miqyosida esa tafakkur–til–e'tiqod o'zaro uyg'unligi ma'naviy barqarorlik, madaniy uzluksizlik va ijtimoiy birlikning ideallashtirilgan mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, triadaning falsafiy tahlili zamonaviy ijtimoiy ongning rivojlanish qonuniyatlarini anglash uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

“Tafakkur–til–e'tiqod integratsiyasining konseptual o'xshashliklari ijtimoiy-falsafiy tahlilda inson ongining yaxlit tuzilmasini anglash uchun muhim metodologik asos hisoblanadi. Ushbu triada alohida-alohida fenomenlar sifatida emas, balki o'zaro uzviy bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi ma'naviy-ontologik tizim sifatida namoyon bo'ladi”. [16.C.111-112]Ularning konseptual o'xshashliklari insonning borliqni idrok etishi, mohiyatni aks ettirish va qadriyatlar tizimini shakllantirishida namoyon bo'ladi. [2.6]

Tafakkur–til–e'tiqod uchligi inson ongining murakkab va ko'p qatlamli tuzilmasini ifodalovchi ijtimoiy-falsafiy model bo'lib, u o'zida ham sinergetik (uyg'unlashuvchi), ham ziddiyatli (qarama-qarshi) jihatlarni mujassam etadi. Ushbu uchlikni tahlil qilish insonning bilish jarayoni, ma'naviy dunyosi va ijtimoiy xulq-atvorini chuqur anglash imkonini beradi. Avvalo, uchlikning sinergetik jihatlari to'xtaladigan bo'lsak, tafakkur, til va e'tiqod o'zaro uzviy aloqada bo'lib, bir-birini to'ldiradi va mustahkamlaydi. Tafakkur insonning mantiqiy fikrlash, tahlil va umumlashtirish qobiliyati sifatida yangi bilimlarga asos bo'ladi. Til ushbu bilimni ifodalash, tizimlashtirish va boshqalarga yetkazish vositasi hisoblanadi. E'tiqod esa, tafakkur orqali anglangan yoki til orqali uzatilgan g'oyalarni ichki ishonch darajasiga ko'tarib, ularni shaxs hayotining yo'naltiruvchi omiliga aylantiradi. Shu tariqa, tafakkur mazmunni yaratadi, til uni shakllantiradi, e'tiqod esa uni barqarorlashtiradi.

Ushbu uchlikni muvozanatda saqlash zamonaviy ijtimoiy-falsafiy taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi.

Tafakkur, til va e'tiqod uchligi zamonaviy kognitiv fanlar hamda diniy tadqiqotlar kesishmasida turli nazariy va metodologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu uchlik inson ongining ishlash mexanizmlarini, ma'no ishlab chiqarish jarayonini va diniy tajribaning tabiati masalalarini tushuntirishda markaziy ahamiyat kasb etsa-da, ularni birlashtiruvchi yagona konseptual model hanuzgacha to'liq shakllanmagan. “Zamonaviy kognitiv tadqiqotlarda asosiy muammo tafakkurning neyrobiologik asoslari bilan til va e'tiqodning ma'naviy-ramziy jihatlari uyg'unlashtirishdadir. [13.10] Kognitiv fanlar tafakkurni asosan miya faoliyati, axborotni qayta ishlash va hisoblash modellariga tayangan holda izohlaydi. Bunday yondashuvda til ko'pincha kodlash va dekodlash tizimi sifatida talqin qilinadi, e'tiqod esa kognitiv sxema yoki mental model darajasiga tushirib yuboriladi”. Natijada, e'tiqodning ma'naviy, transsendent va ekzistensial o'lchamlari

yetarlicha hisobga olinmaydi. Bu esa tafakkur–til–e’tiqod uchligining reduksionistik talqiniga olib keladi.

Diniy tadqiqotlarda esa asosiy muammo ratsional tahlil va e’tiqod va sadoqat o’rtasidagi muvozanatni topish bilan bog’liq. Akademik dinshunoslik e’tiqodni tarixiy, sotsiologik va lingvistik kontekstda tahlil qilishga intiladi. Biroq bunday yondashuvlar ko’pincha, subyekt uchun muqaddas bo’lgan tajribani obyektivlashtirib, uning ichki ma’nosini yo’qotish xavfini tug’diradi. Natijada, tafakkur ilmiy ratsionallik doirasida ishlasa, e’tiqod shaxsiy tajriba sifatida undan ajralib qoladi, til esa faqat matnshunoslik darajasida cheklanib qoladi.

Yana bir muhim muammo diniy tilning tabiati masalasidir. Zamonaviy kognitiv lingvistika diniy tilni metafora, ramz va konseptual xaritalar orqali tushuntiradi. Ammo bu yondashuv e’tiqod egalari uchun muqaddas matnlarning mutlaq haqiqat maqomini izohlashda yetarli emas. “Diniy tadqiqotlarda tilni faqat metaforali konstruksiya sifatida talqin qilish e’tiqodning ontologik asoslarini zaiflashtirishiga olib keladi”. Shuningdek, raqamli va global madaniyat sharoitida uchlikning muammolari yanada kuchaydi. Zamonaviy tafakkur fragmentar va tezkor axborot oqimida shakllanib, til qisqa, vizual va simvolik shakllarga ko’chishi, e’tiqodni esa, individual va pluralistik xarakter kasb etishiga olib kelishi mumkin. Bu holat tafakkur–til–e’tiqod o’rtasidagi an’anaviy muvozanatni buzib, identitet inqirozlari va ma’naviy parokandalikni keltirib chiqaradi. Zamonaviy kognitiv va diniy tadqiqotlarda tafakkur, til va e’tiqod uchligini o’rganishda asosiy muammo ularni bir-biridan ajratib emas, balki yaxlit, ko’p darajali tizim sifatida talqin qilish zaruratidadir. Ushbu integrativ yondashuvsiz inson ongining ham ilmiy, ham ma’naviy jihatlarini to’liq anglash mushkul bo’lib qolmoqda.

Tafakkur, til va e’tiqod uchligining jamiyat ma’naviy hayotidagi ahamiyati insoniyat madaniyati va ijtimoiy ongining shakllanishida markaziy o’rin tutadi. Ushbu uchlik tafakkur (mantiqiy va analitik fikrlash), til (aloqa va ma’no uzatish vositasi) va e’tiqod (axloqiy-ruhiy va ma’naviy ishonch) bir-biri bilan uzviy bog’langan holda jamiyatning ma’naviy barqarorligini, madaniy uzluksizligini va ijtimoiy birdamligini ta’minlaydi. Avvalo, tafakkur jamiyatda ma’naviy ongni shakllantiruvchi va ijtimoiy me’yorlarni anglash vositasi sifatida ahamiyatlidir. Tafakkur insonni stereotiplardan va manipulyatsiyalardan himoya qiladi, muammolarni tahlil qilish, qaror qabul qilish va ijtimoiy mas’uliyatni anglashga yordam beradi. Jamiyat a’zolari tafakkur orqali axloqiy me’yorlarni tahlil qiladi, haqiqatni aniqlashga intiladi va o’z xulqini ongli tarzda tartibga soladi. Shu tariqa, tafakkur ma’naviy tarbiya va ijtimoiy tartibning intellektual asosini yaratadi.

Til esa ushbu jarayonni ijtimoiy maydonga chiqaruvchi vosita hisoblanadi. Til orqali inson o’z tafakkur mahsulini boshqalarga yetkazadi, axloqiy qadriyatlarni ifodalaydi va ularni jamiyat bo’ylab tarqatadi. Diniy matnlar, qonunlar, adabiy va ilmiy asarlar til orqali uzatiladi, bu esa ma’naviy merosni saqlash va avlodlardan avlodga yetkazish imkonini

beradi. Shu bois til jamiyatda madaniy kommunikatsiya va birdamlikni ta'minlovchi asosiy omildir.

E'tiqodning roli esa ijtimoiy normativ va axloqiy yo'naltiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. E'tiqod shaxsni ichki majburiyat va fidoyilik ruhida tarbiyalaydi, uni jamiyatning umumiy qadriyatlariga moslashtiradi. Diniy, madaniy yoki mafkuraviy e'tiqodlar shaxsni faqat tashqi me'yorlar bilan emas, balki ichki ruhiy prinsiplar bilan boshqaradi. Shu bilan birga, e'tiqod jamiyatda ijtimoiy birdamlik va ma'naviy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Uchlikning integratsiyasi — tafakkur, til va e'tiqodning uyg'un ishlashi — jamiyat ma'naviy hayotida bir qancha funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, u ma'naviy konsensus va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlaydi, ya'ni jamiyat a'zolari umumiy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va ongli qarorlar orqali birlashadi. Ikkinchidan, u ma'naviy rivojlanish va transformatsiya uchun asos yaratadi: tafakkur yangi g'oyalarni ishlab chiqadi, til ularni tarqatadi, e'tiqod esa ularni shaxs va jamoa darajasida barqarorlashtiradi. Uchinchidan, uchlik ijtimoiy identitet va madaniy uzluksizlikni ta'minlaydi, ya'ni jamiyat tarixiy tajriba va qadriyatlarni saqlab, ularni zamonaviy sharoitga moslashtiradi.

Shuningdek, tafakkur–til–e'tiqod uchligi axloqiy me'yorlar va huquqiy institutlar faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Tafakkur qonuniy va axloqiy qarorlarni anglashga yordam beradi, til ularni ijtimoiy muloqot orqali targ'ib qiladi, e'tiqod esa shaxsni ularni hurmat qilish va bajarishga ruhlantiradi. Shu tariqa, uchlik jamiyat ma'naviy tartibini saqlashda uzviy rol o'ynaydi. Tafakkur, til va e'tiqod uchligi jamiyat ma'naviy hayotining poydevori hisoblanadi. Ular birgalikda inson ongini, madaniy merosni, axloqiy qadriyatlarni va ijtimoiy barqarorlikni shakllantiradi, jamiyatni ma'naviy jihatdan mustahkamlashda, uning rivojlanishi va yangilanishini ta'minlashda markaziy o'rin egallaydi.

Xulosa va amaliy takliflar. Birinchidana, tafakkur va tilning uzviy bog'liqligi: Tarixiy manbalar tafakkur va til o'rtasidagi uzviy aloqani ko'rsatadi; tafakkur tushunchalarni yaratadi, til esa ularni ijtimoiy maydonga chiqaradi. Biroq, turli davrlarda til tafakkurdan mustaqil yoki tafakkurdan ustun deb talqin qilingan, bu esa jamiyat ma'naviy ongini shakllantirishdagi konseptual murakkablikni yuzaga keltiradi.

Ikkinchidan e'tiqod va tafakkur o'rtasidagi qarama-qarshilik: Qadimgi va o'rta asr manbalari e'tiqodni bilish jarayonining boshlang'ich sharti sifatida ko'rsa, yangi davr faylasuflari uni ratsionallikka xalaqit beruvchi omil sifatida baholashgan. Bu tafakkur va e'tiqodning epistemologik o'zaro ta'sirini tahlil qilishda asosiy falsafiy muammo hisoblanadi.

Uchinchidan, til va e'tiqodning semantik ziddiyati: Diniy matnlar va ma'naviy konseptlar til orqali uzatiladi, ammo tilning evolyutsiyasi va ijtimoiy kontekst e'tiqod mazmunini o'zgartirishi yoki noto'g'ri talqin qilish xavfini tug'diradi. Shu sababli til va e'tiqod o'rtasidagi semantik muvofiqlikni saqlash falsafiy muammolardan biridir.

To'rtinchidan, triadaning ijtimoiy-falsafiy integratsiyasi: Tarixiy manbalar uchlikning yagona tizim sifatida ishlashini ko'rsatadi, ammo har davrda tafakkur, til va e'tiqodning jamiyatdagi o'rni va funksiyasi o'zgarib, integratsiya jarayonida ziddiyatlar yuzaga kelgan. Bu holat jamiyat ma'naviy barqarorligini tahlil qilishda dolzarb masala sifatida namoyon bo'ladi.

Beshinchidan, zamonaviy interpretatsiya muammolari: XXI asr manbalari kognitiv, lingvistik va diniy tadqiqotlarda uchlikni yagona falsafiy model sifatida tushuntirish qiyinligini ko'rsatadi. Tafakkur, til va e'tiqod turli darajadagi epistemologik va aksiologik funksiyalarni bajaradi, ularni birlashtirish esa metodologik va kontseptual muammolarni yuzaga keltiradi.

Tafakkur, til va e'tiqodni o'zaro aloqasining falsafiy muammolarini tarixiy manbalar tahlili asosida o'rganish bo'yicha tadqiqotchilar uchun 5 ta amaliy tavsiya quyida ilgari suramiz:

1. Tarixiy kontekstni chuqur tahlil qilish orqali, tadqiqotchilar har bir davr manbalarini o'sha tarixiy, ijtimoiy va madaniy kontekstda tahlil qilishi lozim. Tafakkur, til va e'tiqodning o'zaro aloqasi faqat alohida faktlar orqali emas, balki ularning jamiyatdagi roli va ma'naviy funksiyasi orqali tushuntiriladi.

2. Manbalarni sinergetik yondashuvda o'rganish zarur. Tafakkur, til va e'tiqodni alohida emas, balki uchlik sifatida integrativ tarzda tahlil qilish zarur. Bu yondashuv ularning bir-birini to'ldiruvchi va ziddiyatli jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Махмудова Д.М. (2022). МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ КИТОБХОНЛИККА ТАЙЁРЛАШ МЕТОДЛАРИ. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 274-278.
2. Кадилова Ф.Р., & Махмудова, Д. М. (2022). Мактабгача катта ёшдаги болаларни китобхонликка тайёрлаш методикасини такомиллаштириш. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 10-16.
3. Мирча Элиаде. История веры и религиозных идей. Том 3. Анонс трех томов в одном файле. Перевод Кулаковой Н.Н., Рокитянского В.Р., Стефанова Ю.Н. – М.: «Критерион», 2002. – С. 40-61-142.
4. Смирнов А.В. Осознать смысл, осмыслить сознание: манифест Другой О-75 философии: сб. статей / отв. ред. серии Р.В. Псху; отв. ред. тома. – М.: ООО «Садра», 2022. – С.213-215.
5. Makhmudova D.M. (2023). EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. Лучшие интеллектуальные исследования, 4(1), 177-180.
6. Махмудова Д.М. (2022, November). СПОСОБЫ ЗАИНТЕРЕСОВАТЬ ДОШКОЛЬНИКОВ ЧТЕНИЕМ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE " THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 3, pp. 96-101).
7. Makhmudova D., & Raxmanova, X. (2022). РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. Science and innovation, 1(B7), 1213-1217.
8. Makhmudova D. M., & Sultanova, Z. (2023, September). METHODS USED IN THE MORNING RECEPTION OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE " SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 4, pp. 8-12).

9. Makhmudova D. M. (2023, September). ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF MODERN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 3, pp. 53-57).
10. Chorievich K. S. (2020). The development of vocabulary in children of middle preschool age through the role-playing games. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(1).
11. Choriyevich X. S. D. (2025). BOLALARDA MAS'ULIYAT HISSINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHI VA OTA-ONA HAMKORLIGINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI. *Scientific and methodological journal of the Tashkent Institute of Economics and Pedagogy*, 2(1), 134-142.
12. Xojamiyarov S. (2025). THE ROLE OF COOPERATION OF TEACHERS, EDUCATORS AND PARENTS IN DEVELOPING A SENSE OF RESPONSIBILITY IN PRESCHOOL CHILDREN. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 3(1), 87-93
13. Xo, S. C., Nazarova, R. R., & Ibragimova, G. X. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ERTAK TERAPIYA ASOSIDA MAS'ULIYAT HISSINI SHAKLLANTIRISH. *Academic research in educational sciences*, (1), 96-99
14. Иванова Е.В., Фархитдинова О.М., Мельникова Е.В. История и теория религии: учебное пособие / Министерство науки и высшего образования Российской Федерации, Уральский федеральный университет. – Екатеринбург.: “Издательство Уралский университета”, 2019. – С.70-83. 100-140.
15. Семушкин А.В. Антиномизм Мифа и Логоса в генезисе философского знания // Вестник РУДН, серия Философия, 2008. – № 2. – С. 89-102.
16. Лустин Ю.М. Типологическая рефлексия личности: концептуальность социального-философского осмысления. // Вестник Московского государственного областного университета. Серия. Философские науки. – 2022. № 3. – С.111-112.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934